



\_\_\_\_\_ hokimligi  
maktabgacha va maktab ta'limi  
boshqarmasi

\_\_\_\_\_ maktabgacha va  
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi  
\_\_\_-umumiy o'rta ta'lim maktabi  
ona tili va adabiyot fani o'qutuvchisi  
\_\_\_\_\_ning  
20\_\_ - 20\_\_ - o'quv yiliga 8-sinflar uchun  
I chorak adabiyot

**DARS**  
**ISHLANMALARI**

**“TASDIQLAYMAN”**

**O‘IBDO‘** \_\_\_\_\_

**20\_\_-20\_\_-o‘quv yili uchun tuzilgan 8-sinf adabiyot fanidan I chorak taqvimiy mavzu rejasi**

<b>№</b>	<b>Mavzu nomi</b>	<b>Soat</b>	<b>Sana</b>	<b>Izoh</b>
<b>I chorak</b>				
1.	Kirish	1		
2.	“Kuntug‘mish” dostoni. Xalq dostonlarining millat ruhiyatini aks ettirishdagi o‘rni. Ularning turlari	1		
3.	“Kuntug‘mish” doston matni bilan tanishish	1		
4.	“Kuntug‘mish” doston matni bilan tanishish	1		
5.	Dostondagi boshqa obrazlar tasviri	1		
6.	<b>Taassurot yozish</b>	1		
7.	<b>Nazorat ishi-1</b>	1		
8.	Nodiraning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma’lumot. “Eshit”, “Oqibat”	1		
9.	“Etib ket ” radifli g‘azali tahlili.	1		
10.	Nazariy ma’lumot: talmeh, irsoli masal, tajnis	1		
11.	G‘afur G‘ulom. “Sog‘inish”, “Vaqt”	1		
12.	Bilib qo‘yki, seni Vatan kutadi” she’rlari.	1		
13.	Oybek. “Na’matak.	1		
14.	“O‘zbekiston” she’ri	1		
15.	She’rxonlik musobaqasi	1		
16.	<b>Nazorat ishi-2</b>	1		
17.	Sinfdan tashqari o‘qilgan asarlar muhokamasi	1		
18.	Adabiy laboratoriyada qilingan ishlar taqdimoti	1		

<b>Sana:</b>				
<b>Sinf:</b>				

**Mavzu: Kirish.**

**Darsning maqsadi:**

**Ta'limiy:** o'quvchilarga asarni o'qish davomida obrazlarga xos xususiyatlarni tahlil qilish orqali ularning badiiy asar g'oyasini (yoki g'oyalarini) ochib berishdagi, voqealar rivojidadagi o'rnini topish, obrazlarga berilgan tavsiflarga (masalan, ularning tashqi qiyofasi, kiyinishi, nutqi – gap-so'zlari, xatti-harakatlariga) e'tibor berish, o'quvchilarda mavzu bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmalarni hosil qilish.

**Tarbiyaviy:** o'quvchilarga vatanparvarlik, insonparvarlik, mehr-oqibat, yaxshilik, kamtarlik tuyg'ularini singdirish, ona Vatanimizga va ota-onasiga cheksiz mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash.

**Rivojlantiruvchi:** o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini, tafakkurini, asarlarni tahlil qilish hamda ifodali o'qish malakalarini rivojlantirish, erkin fikrlashga, muammoli vaziyatlar yechimini topishga o'rgatish, mavzu asosidagi bilim, ko'nikmalarini boyitish..

**O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:**

**Axborot bilan ishlash kompetensiyasi:**

mavjud axborot manbalaridan (kitob, ommaviy axborot vositalari, internet, lug'at, ma'lumotnomalar, (audio-video yozuv), telefon, kompyuter) foydalana olish va ulardagi materiallarga munosabat bildirish.

**Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi:**

aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarini tuza olish; kundalik faoliyatda turli formula, model, chizma, grafik va diagrammalarni o'qiy olish va undan foydalana olish.

**Darsning metodi:** og'zaki (suhbat, savol-javob)

**Darsning vositalari:** dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash, hamma o'zi uchun.

**Nazorat:** o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

**Baholash:** o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.

**Darsning borishi:**

<b>№</b>	<b>Bo'limlar</b>	<b>Vaqti</b>
<b>1</b>	Tashkiliy qism	3 daqiqa
<b>2</b>	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
<b>3</b>	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
<b>4</b>	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
<b>5</b>	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
<b>6</b>	Uyga vazifa	2 daqiqa
<b>Jami</b>		<b>45 daqiqa</b>

**I. Tashkiliy qism:** a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

**II. Uyga vazifani so'rash:** a) Savol – javob o'tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

**III. Yangi mavzu bayoni:**

Insoniyat bosib o'tgan tarixiy yo'l shu qadar chigal, murakkab hodisalarga boyki, uni yaxlit tarzda baholashning hech iloji yo'q. Shu tufayli ham o'tmish hayot to'g'risida har bir ilm va san'at sohasi o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib xulosalar yasaydi. Deylik, ushbu mavzuni o'rganayotganingizda sinf derazalaridan Sizni o'ziga chorlayotgan kuz faslining tarovatini mu musavvir mo'yqalami orqali turfa bo'yoqlarda tasvirlasa, bastakor ushbu fasl nafasini ohang yordamida ko'nglingizga olib kiradi. Xuddi shu kabi, agar tarix ilmi voqea-hodisalarning qachon, qayerda, nima sababdan

yuz bergani, bu qanday natijalarga olib kelganini chuqur o'rgansa, adabiyot uchun ushbu hodisalarda ishtirok etgan kishilarning qalbidan o'tgan kechinmalar muhimroq hisoblanadi. Tarixchi bo'lib o'tgan hodisalarning o'zida, unda ishtirok etgan odamlar, ular hayotiga oid faktlarni iloji boricha aniq ifoda etmogi lozim. Ijodkor adib esa o'z g'oyaviy-badiiy maqsadidan kelib chiqib bu hodisalarga biroz erkinroq yondashadi. Masalan, sarkarda Amir Temurning taqdirida muhim o'rin tutgan «Loy jangi» (1365- yil)ga raqiblar qanday tayyorgarlik ko'rgani, bu jangda har ikki tomondan nechtadan askar ishtirok etgani, har bir tomondan qancha odam qurbon bo'lgani va boshqa tafsilotlarga yozuvchi to'liq to'xtalishi shart emas. U mazkur jangning butun mohiyatini birgina qahramon (u oddiy askar bo'lishi ham mumkin!) qismati orqali o'quvchiga anglatadi. Natijada badiiy tasvir ta'siriga berilgan o'quvchi o'zini shiddatli jala ostida kechayotgan, jaladanda shiddatli olishuv ichida his qilishi hech gap emas. Yozuvchi tarixiy hodisaga ijodiy yondashib, uning bir qirrasini xuddi kuchli lupa ostida ko'ringandek bo'rttirib tasvirlar ekan, bunda muayyan maqsadni nazarda tutadi. O'z kelganda badiiy ijodning yana bir muhim jihatini aytib ketishimiz kerak. U ham bo'lsa, adabiyotda muayyan millat hayotiga daxldor jihatlarning aks ettirilishi masalasidir. Rus adibi Maksim Gorkiy XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Rossiyani qamrab olgan adolatsizlik, xunrezliklar o'ziga qanday ta'sir etganini xotirlab, shunday yozgan edi: «Hayotda ko'rayotganlarim go'yo yuragimning ustini shilib tashlagandek bo'ldi. Shundan buyon mening qalbim har bir nohaqlikdan, adolatsizlikdan ta'sirlanib, achishadigan bo'lib qoldi». Endi hozirga qadar hayoti va ijodini o'rganganingiz yozuvchi-shoirlar asarlarini eslang. Ularning aksariyatida mana shu holatni kuzatish mumkinmi, yo'qmi? Ulug' Navoiyning:

Yuz jafu qilsa manga, bir qatla faryod aylamon,  
Elga qilsa bir jafu, yuz qatla faryod aylaram, -

degan shohbaytning mag'zida ham millat hayotidan ogohlik, xalq qismatidan qayg'urish hislari yotibdi. Albatta, adabiyot hayotdan quruq nusxa ko'chirish, «hayotdagiga o'xshatib yozish» degani emas. Agar shunday bo'lganida so'z san'atining qadri bo'lmas edi. Hayot haqiqati (hayotda yuz bergan voqea-hodisalar) badiiy haqiqat (chinakam badiiy asar)ga aylanishi uchun ijodkor tug'ma iste'dodga ega bo'lishi lozimligini Siz yaxshi bilasiz. Bunga qo'shimcha, o'sha ijodkor yuzaki qaraganda bir-biriga aloqasi yo'qdek ko'rinadigan voqealar o'rtasidagi bog'liqlikni ko'ra olishi kerak. Eng muhimi, inson ko'nglinifaqat o'ziga xos nigoh bilan kashf eta olishi lozim. Buning uchun esa, u tinimsiz o'qib-o'rganishi, odamlar xarakteriga xos eng muhim jihatlarni erinmay kuzatishi, ko'rib-bilganlarini umumlashtira olishi darkor. Har bir zamonning o'z qahramonlari, har bir avlodning o'xshashga intiladigan badiiy obrazlari bo'ladi. Agar o'tgan asrlar kishilari Tohir va Zuhra, Romeo va Julyetta, Farhod va Shirin munosabatlaridan qattiq ta'sirlangan bo'lsalar, XX asr boshlaridagi o'zbek kitobxonlari «O'tkan kunlar» romanini o'qib ruhlangan. Yigitlarga Otabekning mardligi, to'g'risi, millatsevarligi, qizlarga esa Kumushbibining latofati, jasurligi, go'zal odobi namuna hisoblangan. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, bugungi kun yigit-qizlari ham o'z qahramonlarini kashf etishlari, ulardan o'mak olishlari qanchalar muhimligini his qilamiz. Hayotni turli muammolarsiz ta'sir etib bo'lmaydi, albatta. Muammolarning esa katta-kichigi, muhim va nomuhimi bor. Har qanday muammoni badiiy asar mavzusiga aylantirish mumkindek tuyulsa-da, bu ishning e'tibor berilishi lozim bo'lgan jihatlari bor. Gap nima haqda ketmoqda? Hayotda yuz bergan yoki yuz berayotgan voqealar ko'pchilik qatori yozuvchishoirlarni ham o'ziga jalb qilmasligi, tezroq ular to'g'risida yozishga undamasligi mumkin emas.

#### **IV. Yangi mavzuni mustahkamlash**

Sevimli badiiy asaringiz qaysi?

**V. Darsni yakunlash:** o'quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag'batlantirish.

**VI. Uyga vazifani e'lon qilish:** «Agar men yozuvchi bo'lganimda...» mavzusida 5-7 gapdan iborat kichik matn yozing. Unda davr, ijodkor va adabiyot munosabatini aks ettiring.

**O'IBDO':** \_\_\_\_\_

(imzo)

(sana)

<b>Sana:</b>				
<b>Sinf:</b>				

**Mavzu: “Kuntug‘mish” dostoni. Xalq dostonlarining millat ruhiyatini aks ettirishdagi o‘rni.**

**Ularning turlari**

**Darsning maqsadi:**

**Ta’limiy:** o‘quvchilarga asarni o‘qish davomida obrazlarga xos xususiyatlarni tahlil qilish orqali ularning badiiy asar g‘oyasini (yoki g‘oyalari) ochib berishdagi, voqealar rivojidadagi o‘rnini topish, obrazlarga berilgan tavsiflarga (masalan, ularning tashqi qiyofasi, kiyinishi, nutqi – gap-so‘zlari, xatti-harakatlariga) e’tibor berish, o‘quvchilarda mavzu bo‘yicha bilim, malaka va ko‘nikmalarni hosil qilish.

**Tarbiyaviy:** o‘quvchilarga vatanparvarlik, insonparvarlik, mehr-oqibat, yaxshilik, kamtarlik tuyg‘ularini singdirish, ona Vatanimizga va ota-onasiga cheksiz mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash.

**Rivojlantiruvchi:** o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini, tafakkurini, asarlarni tahlil qilish hamda ifodali o‘qish malakalarini rivojlantirish, erkin fikrlashga, muammoli vaziyatlar yechimini topishga o‘rgatish, mavzu asosidagi bilim, ko‘nikmalarini boyitish..

**O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:**

**O‘zini-o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi:**

shaxs sifatida ma’naviy, ruhiy va intellektual kamolotga intilishni ehtiyojga aylantira olish;

badiiy asarlarda tasvirlangan milliy va umuminsoniy qadriyatlarni e’zozlash va ularga amal qilish;

badiiy kitoblarni muntazam o‘qish va o‘rganish, xulosa chiqarish, ibrat olish;

o‘z xatti-harakati, fikr-mulohazalariga tanqidiy yondasha olish, o‘zini nazorat qila bilish, og‘zaki va yozma matnlar mazmuniga to‘g‘ri baho bera olish.

**Milliy va umummadaniy kompetensiya:**

badiiy adabiyot va san’atda aks etgan vatanparvarlik, insonparvarlik g‘oyalari, umuminsoniy va milliy qadriyatlar tasvirini anglash, ulardagi go‘zallik va ezgulikdan o‘rnak olishga intilish, yovuzlik va xunuklikdan nafratlana olish.

**Darsning metodi:** og‘zaki (suhbat, savol-javob)

**Darsning vositalari:** dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash, hamma o‘zi uchun.

**Nazorat:** o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

**Baholash:** o‘quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e’lon qilinadi.

**Darsning borishi:**

<b>№</b>	<b>Bo‘limlar</b>	<b>Vaqt</b>
<b>1</b>	Tashkiliy qism	3 daqiqa
<b>2</b>	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
<b>3</b>	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
<b>4</b>	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
<b>5</b>	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
<b>6</b>	Uyga vazifa	2 daqiqa
<b>Jami</b>		<b>45 daqiqa</b>

**I. Tashkiliy qism:** a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

**II. Uyga vazifani so‘rash:** a) Savol – javob o‘tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

**III. Yangi mavzu bayoni:**

Xalq dostonlari har bir millatning ma’naviy qiyofasi, uning tarixi, qadriyatlarini mukammal aks ettiruvchi bamisoli oynadir. Ularda har bir xalqning urf-odatlarini, milliy o‘ziga xosligi yaqqol k o‘rinib turadi.

Dostonchilik xalq og‘zaki ijodida qadimiy epik an’ana hisoblanadi. Dostonlar, asosan, do‘mbira jo‘rligida aytiladi va ijrochidan ham badihada, ham ijroda juda katta ijodiy mahorat talab qiladi. Dostonning yana bir xususiyati, og‘izdan og‘izga o‘tib avlodlardan avlodgacha yetib kelganidir. Bu o‘z navbatida ustoz-shogirdlik an’analari vujudga kelishiga, natijada yirik dostonchilik maktablarining paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi.

Folklorshunos olim T. Mirzayevning ma’lumotlariga ko‘ra, XV—XVI asrlarda yirik dostonchilik maktablari paydo bo‘lgan, XIX—XX asrlar esa dostonchilik taraqqiyotida juda rivojlangan davr bo‘lgan. XX asr boshlariga kelib baxshilarimiz ijodiy bisotida 150 dan ortiq xalq dostonlari bo‘lgan. Bu dostonlarni Tilla kampir, Sulton kampir, Bo‘ron shoir, Jumanbulbul, Josoq, Yo‘ldosh bulbul, Yo‘ldosh shoir, Suyar shoir kabi mashhur baxshilar kuylaganlar. Keyinchalik ularning an’analari Ergash Jumanbulbul o‘g‘li,

Fozil Yoʻldosh oʻgʻli, P oʻlkan, Islom shoir, Saidmurod Panoh oʻgʻli, Berdi baxshi, Umir baxshi shoir, Bola baxshi ijodida davom ettirildi. Baxshidan u yoki bu dostonni ijro etishda shunchaki voqea bayonini soʻzlab berish emas, balki uni doʻmbira joʻrligida tinglovchini rom etadigan darajada kuylab berish talab etilgan. Dostonchi baxshilar oʻz sanʼatlarini tinglovchiga maʼqul qilish uchun turli usullarni qoʻllaganlar (musiqiy qochirimlar, soʻz oʻyinlari, dostonning eng qiziq joyida tanaffusli chekinishlar kabi). Doston aytish k oʻp hollarda raqobat asosida kechgan. Dostongoʻylik kechalarida bir necha baxshi ishtirok etib, oʻz mahoratlarini namoyish etganlar, ijodiy bahs qilganlar.

XX asming 50- yillarida xalq dostonlariga, shu jumladan, «Alpomish» dostoniga ham bu asarlar mehnatkash xalq manfaatini emas, balki yuqori tabaqalar manfaatini aks ettiradi, shuning uchun ularni ommalashtirish zarardir, degan mafkuraviy ayblar qoʻyildi. Lekin bir qator olimlar bu ayblovlarning xato ekanligini, mazkur dostonlar xalq badiiy tafakkuri, dunyoqarashi, turmush tarzi, boy tilini aks ettiruvchi bebaho xazina ekanligini isbotlab berishdi va shu tariqa adabiy-milliy merosimizning muhim qismini gʻoyaviy tazyiqlardan asrab qolishdi. Dostonchilik anʼanasi hozirgi kunda ham mavjud. Biroq endi kuylash, ijro, tinglovchilar bilan muloqot tarzining zamonaviylik kasb etayotganligini k oʻramiz. Dostonchilik fan va texnika asrida birmuncha oʻzgarishlarga uchradi. Bugungi kun baxshilari oʻz asarlarini konsert zallarida, katta-katta anjumanlarda, televideniya ijro etmoqdalar. Yurtimizda dostonchilikni rivojlantirishga va uning ijrochilari — baxshilar faoliyatini ragʻbatlantirishga katta eʼtibor berilmoqda. 2000- yilda «Alpomish» dostonining ming yilligini jahon miqyosida nishonlanishi va hatto «Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan xalq baxshisi» unvonining taʼsis etilishi (2000- yil 14-mart) buning isbotidir. Qadrli oʻquvchilar, Siz 7-sinf adabiyot darslaridan oʻzbek xalq dostonining goʻzal namunasi boʻlmish «Ravshan» dostoni haqida tasavurga ega boʻlgansiz. 8-sinfda esa yana bir ajoyib asar - «Kuntugʻmish» dostoni bilan tanishasiz. Ushbu doston oʻzining qiziqarli voqealarga boyligi, ravon tili, nafisligi bilan oʻquvchi va tinglovchilarni lol qoldiradi. Dostonning yozib olingan va ijro etilgan nusxalari juda koʻp. Darhaqiqat, «Kuntugʻmish» dostoni oʻzbek xalq dostonlari orasida gʻoyaviy-badiiy jihatdan yetuk asarlardan biridir. Uning xilma-xil koʻrinishdagi variantlari koʻpligining boisi shundaki, ilgari baxshilarning isteʼdodiga, ushbu dostonni qanday aytishiga qarab baho berilgan; natijada barcha baxshilarimiz «Kuntugʻmish» dostonini toʻla oʻzlashtirishga intilganlar. Dostonning Ergash Jumanbulbul oʻgʻli, Bekmurod Joʻraboy oʻgʻli, Nurmon Abduvoy oʻgʻli, Egamberdi Ollamuroddan yozib olingan nusxalari mavjud. Qoʻlingizdagi darslikda esa mashhur baxshi bobomiz Ergash Jumanbulbul oʻgʻlidan yozib olingan nusxasi keltirilgan. Dostonning qisqacha mazmuni quyidagicha: Noʻgʻay yurtida Avliyoyi Qoraxon ismli, Qilichxon laqabli podsho boʻlib, Kuntugʻmish uning yolgʻiz oʻgʻli boʻladi. Kuntugʻmish oʻn toʻrt yoshga toʻlguncha ilm-hunar oʻrganadi, kasb-kamolot hosil qiladi. Oʻn toʻrt yoshdan keyin esa qilichbozlik, miltiq otish, nayzabozlik, koʻpkari chopish kabi siphilik hunarlarini oʻrganadi, xullas, har tomonlama komil shahzoda boʻlib yetishadi. Shahri Zangar degan shaharning Buvraxon degan podshosi boʻlib, uning Shoir va Tohir ismli vazirlari bor edi. Vazirlar bir-birlari bilan juda inoq edilar, ular: «Bizlarga farzand bersa, oʻgʻil boʻlsa qoʻlqanot boʻlsin, qiz boʻlsa doʻst boʻlsin», - deya niyat qilar edilar. Kunlardan bir kuni Shoir vazirning xotini qiz koʻradi. Tohir vazir oilasida oʻgʻil tugʻiladi. Qizning otini Xolbeka, oʻgʻilning otini Xolmoʻmin qoʻyishadi. Lekin Xolmoʻminning onasi toʻsatdan vafot etadi, oʻgʻil goʻdakni Xolbekaning onasi emizishga majbur boʻladi, natijada ular «shirxoʻra» (bir onani emgan) boʻlib, «nikoh yurmaydigan» boʻlib qoladilar. Xolbeka oʻn toʻrt yoshga yetgach, uning husni kamoli ovozasi olamga yoyiladi. U goʻzal, ayni paytda aqlli, nard oʻyiniga mohir qiz boʻlib yetishadi. Unga barcha mamlakatlardan sovchilar kela boshlaydi. Xolbeka sovchilarga: «Har kim meni olaman deb kelsa, oldiga nard oʻyinini qoʻyaman, oʻynayman, utsa tegaman, utdursa soʻyaman», deb shart qoʻyadi. Hatto shahar podshosi Buvraxon ham shu javobni aytadi. Podsho gʻazablanib, shaharga Xolbeka deb kelgan odamni tutib qatl qildirishga farmon beradi, shunday qilsam, toʻrt-besh yildan keyin menga tegishga majbur boʻladi, deb oʻylaydi. Xolbeka va Kuntugʻmish tush k oʻradilar, ular tushlarida bir-birlarining qoʻliga uzuk taqishib, uylangan emishlar. Shundan soʻng, Xolbeka bir mohir suratkashga oʻz rasmini chizdiradi va uni sandiqqa solib, Noʻgʻay yurtiga oqizib yuboradi. Sandiq oqib borib, daryo sohilida ov qilib yurgan Kuntugʻmish qoʻliga tushadi. Kuntugʻmish Xolbeka visoliga yetish uchun Zangar yurtiga oʻtlanadi, bu yurtga kelib Xolbeka bilan topishadi, soʻng koʻp sarguzashtlarni boshidan kechiradi: Buvraxon qoʻliga tushib, oʻlimga hukm qilinadi, dahshatli ajdami oʻldiradi, xiyonatkor Azbarxoʻja tufayli xotini, egizak oʻgʻillaridan vaqtincha judo boʻladi. Doston soʻngida xotini, farzandlari Gurkiyoy va Mohiyyoy, otasi Qoraxon bilan topishadi. Dostonning bosh qahramoni - Kuntugʻmish yolgʻiz, erka oʻgʻil boʻlishiga qaramasdan, aqlli, bilimli, jasoratli, elga gʻamxoʻr, xotini, bolalariga mehribon, vafodor yigit. Kuntugʻmish va Xolbeka bir m oʻjiz a bilan Buvraxon jazosidan omon qolib, sahroda och, tashna qolishganda hayotdan umidini uzgan yori

Xolbekaning «Meni tashlab ketaver, y o‘qsa o‘zing ham halok bo‘lasan», — degan iltijosiga «Bir g‘ayrat qil, y o‘limiz yaqin qoldi», - deb dalda beradi, unga vafodorligini quyidagicha bayon qiladi:

*Po‘lat nayza qor ostida yotarmi,  
Temir nayzang egovlasang o‘tarmi,  
Sening to‘rang nomarlardan emasdir,  
Mard o‘g‘lon sevdigin tashlab ketarmi?..*

Kuntug‘mish o‘z maqsadiga sodiq, har qanday sharoitda tushkunlikka tushmaydigan inson. U nomsiz, poyonsiz tog‘ darasidan Vataniga boradigan y o‘lni rosa izlaydi, bu orada egizak farzandli bo‘ladi, ular uch yoshga to‘lganda ham biror bir el daragini topolmaydi. Xullas, Kuntug‘mish fe‘l-atvorida siz havas qiladigan, ergashadigan insoniy sifatlar juda ko‘p. Dostonni sinchiklab mutolaa qilsangiz, bunga o‘zingiz amin bo‘lasiz. Xolbeka siymosi ham dostonda baxshi bobomiz tomonidan alohida mehr, iliqlik bilan tasvirlangan. U o‘z so‘zida turadigan, barcha hunarlarga mohir qiz. O‘zi qanchalik bir ishga mohir bo‘lsa, bo‘lajak turmush o‘rtog‘idan ham shuni talab qiladi. Shu ma‘noda Xolbeka o‘z xulqi va fazilatlarini bilan har jihatdan Kuntug‘mishga teng va munosib bo‘lgan inson. U haqiqiy muhabbatni tan oladi va unga ishonadi, e‘tibor bering: u o‘z suratini chizdirib, Kuntug‘mish yurtiga yuborar ekan, agar «...shu ko‘rgan tushim rahmoniy bo‘lsa, oshiq-ma‘shuqlik avallan pok bo‘lsa, Xudoyo xudovando, shu sandig‘im senga omonat, to‘radan boshqasiga tegmasin», — deydi. Xolbeka hamiyatli, g‘ururi baland qiz. Garchi u Kuntug‘mishni tushida sevib qolgan, uchrashganda esa yigitni ko‘rib biroz muddat ixtiyorini yo‘qotgan bo‘lsa-da, uning husniga talabgor barcha shoh-u shahzodalarga bergan va‘dasi, y a‘ni faqat nard o‘yinida g‘olib chiqqanga tegaman degan fikridan qaytmaydi. Kuntug‘mish men uchun mashaqqat chekib kelibdi, deb unga tegib ketavermaydi, o‘zi ko‘ngil qo‘ygan yigitning el-yurt oldida ham yuzi yorug‘ bo‘lishini istaydi.

#### **IV. Yangi mavzuni mustahkamlash**

1. Xalq dostonlari haqida nimalar bilasiz?
2. Dostonchilik maktabini yaratgan qaysi mashhur baxshilarni bilasiz?
3. Dostonchilik maktablari qachon paydo bo‘lgan va qaysi asr uning juda rivojlangan davri bo‘lgan?
4. Yurtimizda dostonchilikni rivojlantirish, baxshilar ijodini qo‘llab-quvvatlash uchun nima ishlar qilinyapti?
- 5.«Kuntug‘mish» dostonini ko‘proq qaysi baxshilar ijro etganlar?

**V. Darsni yakunlash:** o‘quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag‘batlantirish.

**VI. Uyga vazifani e‘lon qilish:** Dostonda uchragan maqol va iboralarni daftaringizga yozing, asarda qo‘llanishi sababi to‘g‘risida fikr yuriting.

**O‘IBDO‘:** \_\_\_\_\_  
(imzo) (sana)

*veb-saytimiz: [Zokirjon.com](http://Zokirjon.com)*

*Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o‘zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.*

## *Zokirjon Admin bilan*

*90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog‘lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so‘raladi.*

*Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob beriladi*

**46 listdan iborat adabiyot fanidan 8-sinf I chorak konspektini to‘loq holda olish uchun telegramdan yozing.**




Telegram kanalimiz:

**@Maktablar\_uchun\_hujjatlar**

To‘lov uchun: **UZCARD \*880\*9860230104973329\*summa#**

**Plastik egasi Nabiyev Zokirjon**



### **DIQQAT!!!**

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.  
To‘liq holda olganingizdan so‘ng:  
Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.  
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.  
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.  
Kanal va gruppalarga tarqatmang.

**OMONATGA**

**HIYONAT QILMANG.**

***Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!***  
***Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.***

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**